

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA TILLARNI O’QITISHNING INNOVATSION STRATEGIYALARI” TEMPORALLIK ATAMASI XUSUSIDA

Muminova Aziza Odilovna
SamDCHTI doktoranti (DSc)
Email: aziza-310187@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif, payt, zamon, vaqt, fursat kabi ma’nolarni barchasini o’zida jamlay oladigan temporallik terminining mazmun mohiyati va turli fan sohalarida mazkur terminning qo’llanishi, shuningdek, temporallikni tilshunoslik nuqtai nazaridan talqin etilishi borasidagi qarashlarni keltirgan.

Kalit so’zlar: *temporallik, vaqt, zamon, tilshunoslik, kategoriya, funktsional-semantik maydon.*

Annotation: In this article, the author presented his views on the meaning of the term temporality, which includes all the meanings such as moment, time, opportunity, and the use of this term in various fields of science, as well as the interpretation of temporality from the point of view of linguistics.

Key words: *temporality, time, time, linguistics, category, functional-semantic field.*

Аннотация: В данной статье автор изложил свои взгляды на значение термина временность, включающего в себя все значения, такие как момент, время, возможность, а также на использование этого термина в различных областях науки, а также трактовку темпоральность с точки зрения лингвистики.

Ключевые слова: *темперальность, время, время, лингвистика, категория, функционально-семантическое поле*

Kirish. Temporallik atamasi lotin tilidagi “tempus” so’zidan olingan bo’lib, u - vaqt, zamon, payt, fursat, dam, on kabi ma’nolarni anglatadi. Falsafa fanlarida zamon muammosini tadqiq etishga qaratilgan alohida o’ziga xos yo’nalish shakllangan bo’lib, bu yo’nalish “temporalistika” nomini olgan. Zamon tushunchasi ostida biz fizik vaqt, tarixiy davr, biologik, geologik era, ijtimoiy-gumanitar zamon, siyosiy davr, ish vaqt, bo’sh vaqt kabi tushunchalarni anglashimiz mumkin [4]. Hozirgi zamon falsafiy madaniyatiga temporallik tushunchasi real vaqtga nisbatan moddiyiliklar qarama-qarshi qo'yiladigan ekzistensiallik (mavjudlilik) an'anasi orqali kirib kelgan.

Fenomenologiyaga yo'naltirilgan jamiyatshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslikda temporallik tushunchasi shaxsiyat, sotsial guruh, sinf, jamiyat, qadriyat kabi dinamik obyektlarni ifodalash uchun keng qo'llaniladi. Qisqa qilib aytganda, temporallik - bu vaqt kengligidir. Ya’ni, temporallik tanaffus bo’lib, bunday tanaffus vaqtida obyekt (jarayon, organizm, harakat)ning o’ziga xosliklari mufassal tasvirlanadi [5].

Temporallik o’z navbatida vaqt birliklari bilan belgilanmaydi. Tarix, madaniyat, xalqlar turmushi, har qanday millat ongi o’z aksini milliy tilda topadi.

Masalan, “tinchlik” tushunchasida zamon va makon til yordamida lug’aviy birliklar orqali aks etadi [6].

Mazkur kategoriya nafaqat falsafa va boshqa bir qator ijtimoiy sohalar shuningdek, tilshunoslik fanida ham o’ziga xos o’ringa egadir. Shu sababdan temporallik – tilshunoslar tadqiqotining muhim obyektlaridan biriga aylanib bormoqda. Ushbu kategoriya ustida hozirgacha ko’plab ilmiy ishlar olib borilgan bo’lib, rus tilshunosligida A. V. Bondarko, I. R. Galperin, E. I. Shendels, Z. Ya. Turayeva, G. A. Zolotova, I. O. Moskalska, Z. K. [Axmetjanova](#), E. A. Referovskiy, M. A. Shelyakin va boshqalar asarlarida temporallik muammosi funksional-semantik maydon sifatida ko’rib chiqilgan. Temporallik – fe’lning grammatik kategoriysi sifatida N. S. Avilova, V. G. Admoni, V. G. Gak, G. P. Lomtev, Yu. S. Maslov E. V. Paducheva, A.A. Potebnya, R. L. Wagner, M. Wilmet va b., temporal xol shakllari A. V. Bondarko, M. V. Vsevolodova, M. N. Zakamulina, payt ravishlari F. I. Pankova, I. A. Melchuk, Ye. S. Yakovlev, Ye. V. Paducheva, I. N. Smirnova tadqiqotlarining obyekti bo’lib xizmat qilgan. Ko’p hollarda bunday asarlarda temporallik butun bir tizim sifatida emas balki, alohida olingan ichki shakllar, leksik, morfologik va sintaktik ko’rinishlar sifatida o’rganiladi. Temporallik kategoriysi mohiyati nafaqat morfologik jihatdan balki butun til tarkibidagi aspekt sifatida ham e’tirof etiladi. Mazkur tushunchaga tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan bo’lsak, temporallik - bu funktional-semantik kategoriya bo’lib, vaqtning fizik va falsafiy aspektlarini ifoda etadi va u grammatik, leksik va turli til vositalari yordamida vujudga keladi. Bunda temporallik yadrosi bo’lib grammatik zamon xizmat qiladi, ya’ni, temporallikni ifodalovchi - bu zamon kategoriyasining grammatik shakllaridir. Umuman olganda, tilshunoslikda bu hodisa tekshiruv obyekti sifatida so’nggi yillardagina “temporallik” termini ostida o’rganila boshlandi. Rus tilshunosligida temporallik kategoriysi xususida A.V. Bondarkoning ko’plab asarlari va ilmiy maqolalari chop etilgan bo’lsada, ammo bu muammo to’liq o’rganilmay qolmoqda. Shu sabab bo’lsa kerak, ko’pgina olimlar temporallikka sof badiiy zamon sifatida qaraydilar.

Temporallik hodisasi (shu bilan birga zamon kategoriysi) uchun falsafiy va fizik obyektiv vaqt miqdori, hamda tabiat hodisalari zamon hisobini ko’rsatuvchi omil hisoblanadi. Bu subyektiv shakldagi so’zlovchi nutqining har qanday bo’lagida aks etadi, ya’ni, tilda grammatik formada nozir bo’ladi. Ba’zi adabiyotlarda temporallik va zamon terminlari o’zaro farqlanmaydi. Fikrimizcha, garchi mazkur terminlar o’zaro bog’liq bo’lsada, ularni bir-biridan farqlash lozim.

I. V. Turkinaning fikricha, temporallik zamon tushunchasiga nisbatan kengroqdir, chunki u harakatni vaqt kechimida sodir bo’lishini xarakterlovchi barcha vositalarni o’z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, temporallik tushunchasining ajralmas birligi bo’lmish vaqt – muayyan harakatning sodir bo’lish muddati, davomiyligi, ketma-ketligidir [3].

A. A. Salxenova temporallikni quyidagicha ta’riflaydi, ya’ni temporallik funktional-semantik maydon bo’lib, fransuz tilida ushbu maydonning asosini bir vaqtligil, bo’lib o’tganlik, sodir bo’lishlik kabi farqli belgilarga ega bo’lgan fe’lning grammatik shakllari tashkil etadi [2].

Temporallik kategoriyasi ikki tomonlama, temporal semantika va uning tilda aks ettiruvchi turli tenglikdagi vositalar birikuvi, yoki funktional-semantik kategoriya sanaladi. Bu muammoga oid tadqiqotlar sanoqli bo‘lganligi sababli ko‘pgina tilshunoslar uning badiiy zamon va zamon munosabatlari xususiyatlarini tadqiq etish bilan chegaralanmoqdalar. Ammo temporallikni ilmiy tekshirish, unga shunchaki yuzaki munosabat bildirish emas balki, badiiy zamonning tarkibiy tuzilishini chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir. O. A. Gribeshenkoning ta’biri bilan aytganda, temporallik – funktional-semantik maydon bo‘lib, ushbu maydonning asosini predikativ tashkil etadi. Boshqa funktional-semantik maydonlar kabi temporallik funktional-semantik maydoni ham o‘zining muayyan tuzulishiga egadir, ya’ni uning markazida ma’lum bir grammatik kategoriya va (periferiya) markazdan uzoqdagi yoki ikkilamchi (muayyan tilga tegishli bo‘lgan turli darajadagi lisoniy birliklar) vositalardan tashkil topadi. Temporallik funktional-semantik maydonining etimologiyasi “zamon” leksemasiga borib taqaladi. Olim temporallik maydonini ta’riflashda A. V. Bondarko fikriga tayangan holda, temporallik – fe’l orqali ifodalanuvchi grammatik zamon emasligini ta’kidlaydi. Chunki, temporal ko’rsatgichlar fe’l yordamida ifodalanuvchi ma’lum bir zamon shakliga qo’shimcha vosita hisoblanadi. Shunday bo’lsada, temporallik kategoriyasi grammatik hamda sintaktik zamon bilan chamcharchas bog’liqdir [1].

Demak, temporallik – funktional-semantik maydon bo‘lib, u muayyan harakat, jarayon, hodisa va shu kabilarning sodir bo‘lish vaqtini, paytini ko’rsatib, u nafaqat predikat balki, tildagi turli lisoniy vositalar yordamida o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gribeshenko. O. A. Qo‘shma fe’l turkumi gaplarida vaqt belgilovchilari: tizimli va funksional jihat. Muallifning qisqacha mazmuni. diss. Ph.D. Filol. Sci. - Rostov-na-Donu. – 2008. 26 b.
2. Salkhenova A. A. Zamonaviy fransuz tilidagi vaqtini aniqlashning semantik-funksional sohalari. Muallifning qisqacha mazmuni. diss. Ph.D. Filol. Sci. - Voronej. – 2009. 23 b.
3. Turkina I. V. Ingliz va nemis tillarida vaqtinchalik sohasi tarkibiy qismlarining faoliyati. Muallifning qisqacha mazmuni. diss. Ph.D. Filol. Sci. - Nijniy Novgorod. – 2005. 28 b.
4. <https://fayllar.org/ijtimoiy-gumanitar.html>
5. <https://fayllar.org/demokratik-jamiyat-tushunchasi-demokratiyaning-xalqaro-miqyosi.html>
6. <https://fayllar.org/turkiy-xalqlar-adabiyoti.html>